



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

persistent, and careful consideration of any belief or supposed form of knowledge in light of the grounds that support it and the further conclusions to which it tends.

From a psychological point of view, this is inextricably linked with "metacognition" (thinking about thinking), which is the monitoring and management of one's own cognitive processes. The process of reflexive thinking usually includes the following stages:

1. Awareness of a problematic situation: A "mental pause" that occurs when usual algorithms fail to work.

2. Intellectual analysis: Identifying which knowledge is missing or which method of thinking is erroneous.

3. Formulation of hypotheses: Developing new strategies for solving the problem.

4. Verification: Mental (or practical) testing of the new approach.

According to modern approaches, the levels of reflexive thinking are as follows:

1. Low level (Retrospective): Simply remembering and analyzing past cognitive experiences.

2. Middle level (Situational): Monitoring the thinking process occurring at the present moment.

3. High level (Prospective): Designing intellectual strategies for future complex situations. [2]

In conclusion, we can say that reflexive thinking is not only working on mistakes but also a means for the individual to expand their own intellectual boundaries. It elevates the subject from "automatic" thinking to the level of "conscious" creative thinking. While the reflection of activity implies a detailed and deep analysis, reflexivity, as a personality characteristic, manifests in the habitual actions of daily life and does not require deep analysis.

References.

1. Lefevr V.A., Lepskiy V.E., Semyonov I.N. et al. Reflective approach: from methodology to practice. – Moscow: IF RAN, 2009. – 440 p.

2. Problems of reflection in solving creative problems / Executive editor: I.S. Ladenko. – Novosibirsk: SO RAN, 1996. – 182 p.

3. Ponomarev Ya.A., Semyonov I.N., Stepanov S.Yu. Reflection in the development of creative thinking // Psychological Journal. – 1986. – № 7(6). – P. 168–159.

4. Project-research approach in reflective psychology in innovative education / Ed. I.N. Semyonov, T.G. Boldina. – Moscow: IRPTiGO-Analitika Rodis, 2011.

5. Semyonov I.N. Psychology of thinking, reflection and development trends of cognitive activity. – Moscow-Voronezh, 2000. – 64 p.

DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIKNING BOLALAR O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIRI

**Sayfullayeva Mashxura Baxtiyor qiz, Abdusalomova Charosxon To'liqin
qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda uchraydigan diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining (DYGS) psixologik xususiyatlari hamda uning o'quv faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotlar asosida diqqat jarayonining buzilishi, impulsivlik va ortiqcha harakatchanlikning bolalar bilimlarni o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, pedagogik va psixologik korreksiya usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: diqqat yetishmasligi, giperaktivlik, o'quv faoliyati, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Kirish: Giperaktivlik - odamning jismoniy faolligi va qo'zg'aluvchanligi me'yordan oshibketadigan, noadekvat va samarasiz bo'lgan holati hisoblanadi. Giperaktivlik - bu asab tizimining muvozanatsizligi belgisi. Bu holat, noto'g'ri harakat faoliyatida namoyon bo'ladi: ya'ni, bolalarda oldingava orqagayugurish, shov-shuvlilik, gapiruvchanlik, kattalarda - harakatchanlik, bezovtalik, atrofdagilarning, o'zlarining bezovtalanishiga toqat qilolmaslik shaklida namoyon bo'luvchi faoliyat. Diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi (DYGS) bolalar orasida tez-tez uchraydigan nevrologik hamda xulq-atvor buzilishlaridan biridir. Ushbu holat bola deyarli har qanday faoliyatda e'tiborsizlik va yuqori darajadagi chalg'uvchanlik, ortiqcha faollik, impulsiv harakatlar, shuningdek, ijtimoiy muloqotdagi muammolar bilan tavsiflanadi. Sindrom odatda maktabgacha yoki maktab yoshida namoyon bo'lib, ko'pincha o'g'il bolalarda uchraydi.[1]

Dunyo bo'ylab bolalarning 3–5 foizida diqqat yetishmasligi va giperaktivlik holati aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, 25–30 nafar boladan iborat har bir sinfda kamida bittasida ushbu holat uchrashi mumkin. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, umumiy xabardorlik va oddiy o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha giperaktiv bolalar sog'lom tengdoshlaridan farq qilmaydi, ammo xulosa chiqarish, ijtimoiy tartib-qoidalar, me'yorlarni qo'llash qobiliyatida, shuningdek, mustaqil fikr yuritish, ma'lumotlarni uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishida muammolar kuzatiladi. Muhimi shundaki, bolalarning aqliy faoliyati umumiy jihatdan saqlanib qolsada, lekin ularda quyidagi xususiyatlar – tashvish, bezovtalik, harakatlarning maqsadga muvofiq va muvofiq emasligi, impulsivlik, qo'zg'aluvchanlik ustida ishlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shuningdek, ta'limga oid ko'nikmalarni (o'qish, hisoblash va yozish) egallashda muammolar mavjud bo'lib, bu o'zlashtirish darajasining pasayishiga olib keladi.[2]

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bor farzandi bo'lgan otalarning boladagi bunday noodatiy xatti-harakatlar, ularning aybi emasligini tushunishlari, farzandlari bilan birgalikda, giperaktivlikni asta-sekinlik yengib o'tishlari uchun har bir kunni yangi va yaxshi kayfiyat bilan boshlashlari kerak. [3]

Bola bilan shug'ullanishda tushkunlikka tushmaslik, o'z ichki his-tuyg'ularini nazorat qilishlari, bir-birini qo'llashlari hamda sabr bilan yondashishlari muhim hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda otalarning yaqin qarindoshlari va mahalla jamoasi tushungan holda munosabatda bo'lishlari, kerakli vaziyatlarda yordamlarini ayamasliklari zarur. Qo'llab-quvvatlash orqali ular ijobiy natijalarga erishishlari mumkin bo'ladi.

O'quv jarayoniga ta'siri (Akademik o'zlashtirish)

-Diqqatni jamlay olmaslik: Bola dars davomida o'qituvchining tushuntirishiga e'tibor bera olmaydi, tez charchaydi va chalg'iydi, bu esa yangi mavzuni tushunmaslikka olib keladi.

-Vazifalarni oxiriga yetkazmaslik: Uy vazifalarini yoki sinf ishlarini oxirigacha bajarmaydi, ko'p xatolarga yo'l qo'yadi (e'tiborsizlik tufayli).

-Unutuvchanlik: O'quv qurollarini uyda qoldirish, topshiriqlarni esdan chiqarish tez-tez kuzatiladi.

-Tashkilotchilikning pastligi: O'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olmaydi, darsga tayyorlanish jarayonini rejalashtira olmaydi. [4]

Xulosa. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rigan bolalar, to'g'ri pedagogik va psixologik yordam ko'rsatilganda, o'quv faoliyatida yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Erta tashxis va korreksion ishlar o'zlashtirishdagi muammolarni kamaytiradi. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik bolalar o'zlashtirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Erta diagnostika, psixologik yordam va pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali bunday bolalarning ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жмуров В. А. „Гиперактивность“, Большая энциклопедия по психиатрии, 2-е изд.
2. Barkley R.A. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder. — New York: Guilford Press, 2015. — 45–78-betlar.
3. Шабалов Н. П. „F90. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью“, Справочник педиатра, 3 изд, Питер, 2013 — 357 bet..
4. Masharipov Y. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Tafakkur, 2018. — 90–112-betlar.
5. “Работа с детьми с синдромом дефицита внимания и гиперактивности от дошкольного до подросткового возраста на разных уровнях получения образования” методические рекомендации, Москва 2017.
6. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.
7. Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 y;

OTA – ONA TARBIYASI VA OILAVIY MUHITNING BOLALAR XULQIGA TA'SIRI

To'ychiyev Abdulla Baxtiyor o'g'li - O'zMU Jizzax filiali 2 – bosqich magistranti
abdullatuychiye076@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ota – ona tarbiya uslublarining (avtoritativ, avtoritar, ruxsat beruvchi va befarq) bolalar va o'smirlarning hissiy barqarorligi, o'z – o'zini baholashi hamda ijtimoiy ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinadi. Iliqlik va qat'iylik